O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLLIGI

ORIENTAL UNIVERSITETI

PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YO’NALISHLARDA YOSH TADQIQOTCHILARNING O’RNI

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

(2026-yil 10-fevral)



Toshkent – 2026

TAHRIR HAY’ATI

1. **M.A.NASIROVA** – filalogiya fanlari nomzodi, professor (mas’ul muharrir).
2. **T.M.ISAQULOV** – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent.
3. **Sh.G‘.KARIMOVA** – filalogiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent.
4. **J.B.MAMADIYOROV** – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent.
5. **U.B.MAMANAZAROV** – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD).
6. **Y.B.MAXMUDOV** – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD).

To‘plamga kiritilgan maqola va tezislarga dalil, raqam va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualiflar masuldirlar.

TA’LIM JARAYONIDA NOGIRONLIGI BO‘LGAN O‘QUVCHILARNING MAXSUS EHTIYOJLARNI TA’MINLASH

Nazarova Dildora Asatovna
Oriental universiteti Uzluksiz ta’lim pedagogikasi kafedrasi professori v.b., pedagogika fanlari nomzodi, professor
Ganiyeva Dilbar Rustamovna
Oriental universiteti
60110500 – “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi sirtqi ta’lim shakli, 202-guruh talabasi
https://orcid.org/0009-0007-3741-3836

Annotatsiya. Mazkur maqolada inkyuziv ta’limning mazmuni, jahonda nogironligi bor insonlar bilan olib borilayotgan ishlar tavsifi berilgan. Nogironligi bo‘lgan shaxslar dush keladigan jismoniy, ijtimoiy va ma’naviy to‘siqlar masalasi, alohida e’tiborga muhtoj yoshlarning ta’limga bo‘lgan ehtiyojlar tavsifi berilgan. Bilim olish, xulq-atvor va ijtimoiy muhitga moslashish, kommunikatsiya masalasi, jismoniy rivojlanish, texnologik yordam va vositalarga bo‘lgan ehtiyoj masalasi yuzasidan fikrlar bayon qilingan. Har bir bolaning individual rivojlanish xususiyatlariga moslashtirilgan ta’lim dasturlari asosida e’tibor berilishi kerak bo‘lgan jihatlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘z va iboralar: inkyuziv ta’lim, maxsus ta’lim, tamoyil, nogironlik, yondashuv, model, imkoniyat, o‘quv dasturlari.

Annotation. This article describes the concept of inclusive education and provides an overview of global efforts to support individuals with disabilities. It highlights the physical, social, and moral barriers faced by people with disabilities, as well as the educational needs of young individuals requiring special attention. The article discusses issues related to access to knowledge, behavior and adaptation to the social environment, communication, physical development, and the need for technological assistance and tools. It emphasizes the importance of developing educational programs tailored to the individual developmental characteristics of each child

Keywords. Inclusive education, special education, principle, disability, approach, model, opportunity, educational programs.

Аннотация. В статье описывается концепция инклюзивного образования, а также представлен обзор мирового опыта по поддержке людей с ограниченными возможностями. Рассматриваются физические, социальные и моральные барьеры, с которыми сталкиваются люди с инвалидностью, а также

образовательные потребности молодых людей, нуждающихся в особом внимании. В статье обсуждаются вопросы, связанные с доступом к знаниям, поведением и адаптацией к социальной среде, коммуникацией, физическим развитием, а также потребностью в технологической помощи и инструментах. Особое внимание уделено необходимости разработки образовательных программ, адаптированных к индивидуальным особенностям развития каждого ребенка.

Ключевые слова. Инклюзивное образование, специальное образование, принцип, инвалидность, подход, модель, возможности, образовательные программы.

Inklyuziv ta’lim, ya’ni maxsus ehtiyojli bolalarni umumiy ta’lim tizimiga kiritish, bugungi kunda ijtimoiy tenglik va adolatni ta’minlashda eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Bu tizimda ta’lim barcha bolalar uchun teng imkoniyatlar asosida tashkil etilishi lozim bo‘lib, jumladan, nogironligi bo‘lgan bolalar va yoshlar uchun individual yordam va yondashuvni talab qiladigan ta’lim jarayoni ekanligini qayd etish mihim. Ya’ni inklyuziv ta’lim jarayonida ta’lim vositalari, o‘quv dasturlari va pedagogik usullar maxsus ehtiyojli bolalarning intellektual, jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutadi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘ylab 1 milliardga yaqin nogiron shaxslar mavjud. Ushbu shaxslarning 15 foizi nogironligi bo‘lgan bolalardir. O‘zbekistonda ham nogironligi bo‘lgan bolalarga teng imkoniyatlarni yaratish masalalariga e’tiborning ortib borishi bois ularning ta’lim olish imkoniyatlarini yaxshilashga qaratilgan huquqiy asos yaratildi, davlat dasturlari amalga oshirilib borilmoqda [3, 4,5,6,7,8].

Nogironligi bo‘lgan bo‘lgan shaxslarning jamiyatda duch keladigan to‘siqlari turli shakllarda namoyon bo‘ladi:

To‘siq turi	Kelib chiqish sabablari
Jismoniy to‘siqlar	Har bir bolaning imkoniyatlariga moslashuvchan infratuzilmaning mavjud emasligi
Ijtimoiy to‘siqlar	Noto‘g‘ri qarashlar, kamsitishlar (diskriminatsiya)
Ma’naviy to‘siqlar	O‘z imkoniyatlariga ishonchsizlik

1. Jismoniy to‘siqlar. Jismoniy to‘siqlar nogironligi bo‘lgan bolalarning kundalik hayotdagi harakatlanishlariga to‘sqinlik qiluvchi sharoitlar bilan bog‘liq. Masalan, ta’lim muassasalarida yoki jamoat joylarida panduslar, liftlar, moslashtirilgan hojatxonalar va boshqa qulayliklarning yetishmasligi jismoniy to‘siqlar hisoblanadi.

Nogironligi bo‘lgan bolalar uchun maxsus moslashtirilgan infratuzilmaning yo‘qligi ularning ta’lim jarayonida to‘laqonli ishtirok etishiga to‘sqinlik qiladi [11].

2. Ijtimoiy to‘siqlar. Ijtimoiy to‘siqlar jamiyatda nogironligi bo‘lgan bolalarga nisbatan noto‘g‘ri qarashlar, diskriminatsiya va ularni chetlab qo‘yish orqali namoyon bo‘ladi. Jamiyat tomonidan nogironligi bo‘lgan bolalarni to‘laqonli qabul qilinmasligi va ularni hech bir tanlovsiz maxsus muassasalarga yo‘naltirish mazkur toifa bolalarining ijtimoiy hayotga integratsiyalashuviga to‘sqinlik qilib, ko‘pincha ijtimoiy yakkalanish (izolyatsiya) ga duch kelishlarini keltirib chiqaradi. O‘z navbatida, ushbu holat ularning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, pirovardida jamiyatga uyg‘unlasha olmasliklarirni yetaklab keladi [11].

3. Ma’naviy to‘siqlar. Ma’naviy to‘siqlar nogiron shaxslarning o‘z imkoniyatlariga ishonchsizligi, o‘zlarini jamiyatdan ajratilgan deb his qilishlari natijasida yuzaga keladi. Nogironligi bo‘lgan bolalarning psixologik yordamga muhtojligi ularning ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga ta’sir qiladi. Psixologik reabilitatsiya xizmatlari va ta’lim subyektlarining qo‘llab-quvvatlovi bu to‘siqlarni bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim jarayonida psixologik xizmatlarni kengaytirish va nogironligi bo‘lgan bolalarga reabilitatsiya xizmatlarini taqdim etish uchun davlat dasturlari amalga oshirilishiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Yuqoridagi ta’riflangan barcha to‘siqlar nogironligi bo‘lgan bolalarning rivojlanishiga, jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga to‘sqinlik qiladi va ular uchun alohida yordam va qo‘llab-quvvatlash zarur bo‘ladi. Shu bois bu toifa bolalarinnig ehtiyojlari jabhalari haqida to‘liq tushunchaga ega bo‘llish muhim. Alohida e’tiborga muhtoj yoshlarning ta’limga bo‘lgan ehtiyojlari quyidagi jabhalarda namoyon bo‘ladi:

Bilim olish ehtiyojlari. Nogironligi bo‘lgan bolalar bilim olishda maxsus yondashuv va qo‘llab-quvvatlashni talab qiladi. Aqliy va intellektual rivojlanishdagi cheklanishlari bo‘lgan bolalarning sifatli ta’lim olishlarida jarayonni yengillashtiruvchi - moslashtirilgan darslik va o‘quv resurslari, texnologiyalar zarur. Masalan, ko‘rishida muammolari bo‘lgan bolalar uchun brayl alifbosidagi kitoblar va eshitishida muammolari bo‘lgan bolalar uchun subtitrlar hamda turli ovoz kuchaytirgich uskunalari o‘quv jarayonini maqsadli tashkil etish imkonini yaratadi.

Xulq-atvor va ijtimoiy rivojlanishga bo‘lgan ehtiyojlar. Nogironligi bo‘lgan bolalar ko‘pincha xulq-atvor va ijtimoiy muhitga moslashishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ularning ijtimoiy rivojlanishiga yordam berish uchun maxsus dasturlar va treninglar ishlab chiqilishi talab etiladi. Bu dasturlar bolaning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi va boshqalar bilan muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratiladi.

Respublikamizda maxsus ehtiyojli bolalarning o‘quv jarayoniga uyg‘unlashuvlariga qaratilgan shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlari, interfaol usullsr, treninglar ishlab chiqilib, joriy etilmoqda.

Muloqot (kommunikatsiya)ga bo‘lgan ehtiyojlar. Nogironligi bo‘lgan bolalar ko‘pincha muloqot qilishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ular uchun moslashtirilgan muloqot vositalari va texnologiyalar yordamida muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish muhimdir. Masalan, nutq va til rivojlantirish bo‘yicha maxsus mashg‘ulotlar orqali bolalar o‘z fikrlarini erkin ifodalashni o‘rganishadi, bu ularning jamiyat bilan aloqada bo‘lishiga yordam beradi [12].

Jismoniy rivojlanishdagi ehtiyojlari. Jismoniy nogironligi bo‘lgan bolalar uchun moslashtirilgan sport zallari, panduslar va maxsus texnik vositalar zarur hisoblanadi. Ta’lim jarayonida ularning jismoniy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, ularning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan uchun turli sport mashg‘ulotlari, terapiyalar hamda maxsus davolovchi jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari kiritiladi. Bularning barchasi bolalarning sog‘lig‘ini saqlash va hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi [16].

Texnologik yordam va vositalar. Texnologik yordam maxsus ta’limning samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, eshitishida muammolari bo‘lgan bolalar uchun eshitish moslamalari, ko‘rish qobiliyatida muammollari bo‘lgan bolalar uchun brayl alifbosidagi ta’lim resurslari va harakatlanishida muammolari bo‘lgan bolalar uchun pandus va liftlar kabi texnik vositalar ta’limni yanada samarali qilishga yordam beradi. O‘zbekistonda bu kabi texnologik yordamlar inklyuziv ta’limni keng joriy qilishga qaratilgan davlat dasturlariga kiritilgan.

Ta’lim jarayonida nogironligi bo‘lgan bolalarning maxsus ehtiyojlarni ta’minlash muhim bo‘lib, har bir bolaning individual rivojlanish xususiyatlariga moslashtirilgan ta’lim dasturlari ularning jismoniy, aqliy va ijtimoiy jihatdan rivojlanishiga yordam beradi.

1. Ta’lim oluvchining shaxsiga yo‘naltirilgan (individual) yondashuv. Nogironligi bo‘lgan bolalar turli xil rivojlanish darajalariga ega bo‘lgani bois, ularning shaxsiga yo‘naltirilgan yondashuv talab qilinadi. Har bir bola uchun ta’lim shaxsiy rivojlanish dastur va rejalarini tuzish bo‘yicha talablar ishlab chiqilmoqda.

2. Moslashtirilgan darslik, qo‘llanma va ta’lim resurslari. Nogironligi bo‘lgan bolalar uchun maxsus moslashtirilgan darsliklar va o‘quv materiallari ta’lim jarayonini osonlashtiradi. Masalan, ko‘rishida muammolari bo‘lgan bolalar uchun brayl alifbosidagi kitoblar, eshitishida muammolari bo‘lgan bolalar uchun esa ovoz

kuchaytirgich uskunalari va subtitrlar bilan ta’minlash zarur. Bu resurslar bolaning sifatli ta’lim olishiga katta yordam beradi.

3. Pedagogik tayyorgarlik va malaka oshirish. Inklyuziv ta’limda ta’lim oluvchilarning ehtiyojlariga mos yondashuvni ta’minlashda ta’lim subyektlari va, ayniqsa, o‘qituvchilarning o‘rni beqiyos hisoblanadi. Respublikamizda maxsus ehtiyojli bolalar va yoshlar inklyuziv ta’limi jarayonida ishtirok etuvchi o‘qituvchilar pedagogik uslublarni qanday moslashtirish zarurligi va ta’lim oluvchilarga jarayonda qanday yordam ko‘rsatishni o‘rganishlariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

4. Jamiyat bilan uyg‘unlashuv va hamkorlik. Nogironligi bo‘lgan bolalarning jamiyatga to‘laqonli qo‘shilishida barcha ishtirokchilar - ota-onalar, pedagoglar va jamiyatning boshqa qatlamlari bilan hamkorlik zarur. Ta’lim jarayonida ota-onalarning faolligi bolaning rivojlanishiga va ijtimoiy muhitga moslashishiga yordam beradi.

Inklyuziv ta’lim jarayonida bolalar uchun reabilitatsiya xizmatlari ham muhim ahamiyatga ega. Reabilitatsiya nogironligi bo‘lgan bolalarning jismoniy va ruhiy sog‘lig‘ini tiklashga yordam beradi va bu xizmatlar orqali bolalar o‘z qobiliyatlarini to‘liq rivojlantirish, namoyon etishga muvaffaq bo‘ladilar.

Xorij olimlari nogironlik va inklyuziv ta’lim sohasida keng ko‘lamli tadqiqotlar olib brogan bo‘lib, ular nogironligi bo‘lgan bolalar ta’lim tizimining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan.

Rossiya olimlaridan N.N. Malofeyev inklyuziv ta’lim va maxsus ta’lim sohasida muhim izlanishlari alohida e’tiborga muhtoj bolalar uchun ta’lim tizimini rivojlantirish va moslashtirish bo‘yicha tadqiqoti nogironligi bo‘lgan bolalar uchun individual ta’lim dasturlarini ishlab chiqishning samaradorligini isbotlagan [16].

Xalqaro miqyosda inklyuziv ta’lim bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar, masalan, J.Butterworth va D.Mitchell tadqiqotlarida inklyuziv ta’limning ijtimoiy foydalari va nogironligi bo‘lgan bolalarning ta’lim tizimiga to‘laqonli uyg‘unlashuvi bo‘yicha qimmatli tavsiyalar berilgan bo‘lib, olimlar nogironligi bo‘lgan bolalarga teng ta’lim imkoniyatlari yaratish orqali jamiyatda tenglik va adolat ta’minlanishini ta’kidlaydilar [11].

Mamlakatimizda rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalar uchun tashkil etilgan maxsus va inklyuziv ta’limni xalqaro yetakchi tajribalar asosida, milliy hususiyatlar inobatga olingan holda tashkil etishning huquqiy-me’yorlari takomillashtirilgan.

“Ta’lim jarayonida sog‘lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish, o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, emotsional-irodaviy sohasi, bilish faoliyatini faollashtirish,

ijtimoiy ko‘nikma va salohiyatini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish” kabi muhim vazifalar belgilandi [9,10]. O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirishda moqda. Davlat tomonidan qabul qilingan “2025-yilgacha inklyuziv ta’limni rivojlantirish strategiyasi” doirasida maktablarda maxsus ehtiyojli bolalar uchun moslashtirilgan infratuzilma va o‘quv materiallari yaratish ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, o‘qituvchilarni malaka oshirish va ota-onalarni bu jarayonga jalb qilish ham bu strategiyaning asosiy yo‘nalishlaridan biridir.

Xulosa. O‘zbekiston olimlari ham o‘z tadqiqotlarida mamlakatimizda nogironligi bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim tizimining rivojlanishi va maxsus ehtiyojli bolalar uchun individual ta’lim dasturlarini yaratishning ahamiyatini o‘rganib, zamonaviy yondashuvlardan kelib chiqqan holda milliylik va hududiy shart-sharoitlarga mos samarali usul, vosita va texnologiyalarni joriy etmoqdalar.

Inklyuziv ta’limning rivojlanishidagi muammolar nogironlik muammosiga zamonaviy yondashuv orqali hal qilinishi mumkin. Nogironligi bo‘lgan bolalarga teng ta’lim imkoniyatlarini yaratish nafaqat ularning rivojlanishiga yordam beribgina qolmay, balki ularning jamiyatning to‘laqonli a’zolari sifatida ko‘rishga imkon yaratadi. Xalqaro va milliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, nogironligi bo‘lgan bolalarga individual yondashuv, ular shaxsining to‘laqonli rivojlanishiga yaratilgan moslashuvchan mihit ularning ta’lim jarayonida muvaffaqiyatli bo‘lishiga yordam beradi. O‘zbekistonda bu yo‘nalishda olib borilayotgan chora-tadbirlar maxsus ehtiyojli bolalarning jamiyatga to‘siqlarsiz uyg‘unlashuvlariga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. BMT. Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi. 1948.
2. BMT. Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya. 1989.
3. O‘zbekiston Resrublikasining Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.
4. O‘zbekiston Resrublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qoninu. O‘RQ-637-son. 2020-yil 23-sentabr.
5. «Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» O‘zbekiston Resrublikasi Prezidentining 2017-yil 1 dekabrdagi PF-5270-son Farmoni.
6. «Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi». O‘zbekiston Resrublikasi Prezidentining 2019-yil 29 apreldagi PF-5712-son Farmoni.
7. «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Resrublikasi Prezidentining 2022-yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Farmoni. 2019 yil 29 aprel PF-5712-son.

9. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori. 2020-yil 13-oktabr PQ-4860-son.

10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining «Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida»gi Qarori. 2021-yil 12-oktabr 638-son. https://lex.uz/doss/5013007

11. Butterworth, J., & Mitchell, D. (2013). Inclusive Education and its Social Benefits. London: Routledge. 77-80.

12. Florian, L., & Black-Hawkins, K. (2011). Exploring Inclusive Pedagogy. British Educational Research Journal. 28.

13. Nazarova D.A. Inklyuziv madaniyatini shakllantirishda ta’lim klasteri subyektlarining o‘rni. //Scientific aspects and trends in the field of scientific research. International scientific online conference.

14. Nazarova Dildora Asatovna. Issues of involving children with hearing in inclusive education.// European Journal of Agricultural and Rural Education (EJARE)Available Online at: https://www.scholarzest.com Vol. 2 No.12, December 2021,ISSN: 2660-5643/ Page 149.

15. Nazarova, D. A. (2020). "Aspects of Orientation of Students of the Professional Development Courses in the Direction 'Managers of Educational Institutions' to the Effective Organization of Inclusive Education."European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(8), 7-12.

16. Rustamovna G. D. BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QUVCHILARIDA FIKRNI ERKIN VA MUSTAQIL BAYON QILISHNI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR //Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology. – 2025. – Т. 2. – №. 3. – С. 117-120.

17. Н.Н.Малофеев. От равных прав к равным возможностям, от специальной школы к инклюзии. Известия РГПУ им. Герцена. 2018. №190. 8-15 стр.

TA’LIM MUASSASALARINING ILMIY VA O‘QUV HAMKORLIGI – O‘QUV-TARBIYA JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI

Nazarova Dildora Asatovna
pedagogika fanlari nomzodi, professor
Hashimova O‘g‘iloy
Qudratova Dilfuza
Oriental Universiteti Maxsus pedagogika yo‘nalishi 401-guruh talabalari

Ta’limni rivojlantirish mamlakatning ravnaqi uchun zaruriy shart ekanligi tan olingan davlatlarda mazkur tizimni isloh qilish yangi ta’limiy voqelik – inklyuziv ta’lim muhitining yaratilish zaruriyatini keltirib chiqardi. Bunday voqelikning zaminida quyidagi omillar turishini ko‘rsatib o‘tamiz:

Ijtimoiy – jamiyatda insonparvarlik va uni demokratlashtirish g‘oyalarining singdirib borilishi; ta’limda alohida e’tiborga muhtoj bo‘lgan bolalar sonining ortib borishi; jamiyat tomonidan ta’lim sifatiga erishish va uni olishga imkoniyatlarning ortib borishi; oila va uning farzand tarbiyasidagi o‘rni, ularning ta’lim-tarbiyasiga mas’uliyatiga e’tiborning kuchayib, ota-onalarning ta’lim jarayoniga subyekt sifatida jalb qilinishi zarurati;

Qonuniy – BMT va davlatimiz tomonidan bola va nogironligi bo‘lgan shaxslarning rivojlanishi, himoya qilinishi, munosib hayot kechirishiga qaratilgan huquqiy-me’yoriy hujjatlarning ijrosi;

Nazariy – fandagi zamonaviy yondashuvlar: shaxsni tez o‘zgaruvchan zamonda yashashga, uning ijtimoiy hayotiy voqyeliklarga moslashuvchan etib tayyorlashga, o‘zini-o‘zi rivojlantirish ko‘nikmasini shakllantirishga erishish kabi muammolarning amaliy yechimiga erishish, pedagoglarning shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish;

Iqtisodiy – inson resurslariga e’tiborning kuchaytirilishi: har qanday nogironligi bo‘lgan shaxs olgan ta’limining darajasining uning o‘zi va oilasi, xuddi shuningdek, mamlakat rivojiga qo‘shadigan ulishi sifatida qaralishi.

Rossiyalik olimlar mazkur ta’limiy muhit moslashuvchan yakka yo‘naltirilgan ijodkorlik tavsifiga ega bo‘lib, o‘quvchi umumiy bo‘lgan topshiriqlar, masalalarga shaxsiy yo‘naltirilganlik asosida tashkil etilgan jamoada ijtimoiy-madaniy munosabatlarga kirishar ekan, o‘zini anglash, o‘zo‘rniga ega bo‘lish kabi xislatlarni egallab borib, ijtimoiy jipslashuv shaxsning «mavjud bo‘lish» san’atini egallashga asos bo‘lishini ta’kidlaydilar (1).

I.A.Bayeva yuqoridagi fikrlarni davom ettirgan holda «Ta’lim muhiti» kategoriyasi ta’limni ijtimoiy hayot sohasi sifatida, o‘z navbatida, atrof-muhit esa ta’lim omili sifatida qaralishi lozimligini ta’kidlaydi (2).

D.Mitchell ta’limning samarali bo‘lishi uchun ta’lim maydoni xavfsiz va har bir o‘quvchini rivojlantiruvchi tavsifga ega bo‘lishi lozimligi, atrof-muhit barcha bolalarga zarur bo‘lgan narsalarni o‘rganish imkoniyatini yaratishi, ularning ta’limi haqiqatan ham shaxsiy hayotlari sifatini yaxshilashga hissa qo‘shishi, mustaqillik va o‘zaro bog‘liqlik o‘rtasidagi muvozanatni topishlari va jamiyat hayotida to‘liq ishtirok eta olishlariga tayyorlashi, imkon berishi muhimligini qayd etadi (3).

B.B.Aysmontas, M.A.Odinsova inklyuziv ta’lim «to‘siqsiz muhit» sharoitida barqaror bo‘lishi, bunday muhit jamiyat hayotining barcha jabhalarida rivojlanishida muammolari bo‘lgan shaxslar uchun teng imkoniyatlarni yaratishga qaratilgan keng qamrovli sharoitlarni tushunish lozimligini ta’kidlasalar, N. N. Bukovsova «To‘siqsiz ta’lim muhiti nogiron bolalar uchun qulay muhit. Bu esa ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatini va ularni oddiy maktablarda qo‘shma o‘qitish jarayonini ta’minlaydi» deya qayd etadi (4,5)

K. Yildirim va S. Yenipinar «istisno» (12 band), «qo‘llab-quvvatlovning mavjud emasligi» (4 ta band), «tortinish» (3 ta band) omillariga tayangan holda turk maktablarida 19 banddan iborat «psixologik «xavfsiz emaslik» o‘lchovi»ni ishlab chiqib, atroflicha isbotladilar (6).

Tadqiqotchilar ta’lim makonini tarkibining mavjudligi, moslashuvchan yoki qat’iy tuzilishi, darajasi, shuningdek, tashkil etilishi kabi qator xususiyatlar bilan tavsiflaydilar. Uning o‘ziga xos xususiyatlari mavjudlik darajasi, predmetlarning ko‘pligi, ko‘p darajali o‘zgaruvchan ekanligida namoyon bo‘ladi.

Inklyuziv ta’lim makonini modellashtirishda pedagogik jamoalar, shuningdek, faoliyat subyektlari bo‘lgano‘quvchilar va ota-onalar maqsadli tizimli faoliyatini psixologik qo‘llab-quvvatlash va ko‘p qirrali rivojlantirish, farzandlarining ta’lim makoniga ijtimoiy-pedagogik moslashishini inobatga olish muhim sanaladi. Shuningdek, ta’lim makonini modellashtirishda biz bir-biriga moslashuvchan, o‘zaro ta’sir ko‘rsatuvchi ko‘p darajali ta’lim muassasalarini o‘z ichiga oluvchi ierarxik tuzilma bo‘lgan inklyuziv ta’lim vertikalini tanlashimiz muhim.

Ta’lim muassasalarini ilmiy va o‘quv klasteriga birlashtirish va muvofiqlashtirish maxsus ta’lim tizimining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ilmiy va o‘quv klasterini aniqlashda eng muhim mezon uning barcha tarkibiy qismlari uchun yagona umumiy maqsadning mavjudligi bo‘lib, u amalda birlashgan ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy-ma’rifiy loyihalarda ifodalanishi mumkin bo‘lib, bu davrda

ishtirokchilarda ijobiy fazilatlar, xususan, o‘quvchilarning har birlari uchun va xuddi shuningdek, klasterga kiritilgan tashkilotlarning yangi hayotiy, ijtimoiy vakolatlari shakllanadi.

Klaster doirasidagi hamkorlik ijtimoiy axloqiy me’yorlarga muvofiq, ixtiyoriy ravishda, o‘zaro manfaatlarni hurmat qilish, imkoniyatlarni rivojlantirish maqsadida tashkil etiladi.

Mazkur yondashuv asosida ta’lim tizimini rivojlantirish orqali sub’ektlar sherikchilikni kuchaytirib, bir-biriga o‘zaro ta’sir qilgani holda, alohida unsurlar, shuningdek, klasterning afzalliklarini ham kuchaytiradi.

Klaster yondashuvi boshqa yondashuvlarga nisbatan inkor etib bo‘lmaydigan afzalliklarni beradi va yangi ta’lim siyosatini amalga oshirishning muhim strategik mexanizmiga aylanadi.

M.P.Voynarenko klasterning iqtisodiyotning yuqorilashuviga olib keluvchi muhim yo‘l ekanligini asoslash bilan birga uning muvaffaqiyatini ta’minlovchi: yangilikni tadbiq etish, ma’lumotga tayanish, uyg‘unlashish, umumiy manfaatlarning mavjud bo‘lishi, ishtirokchilarning tashabbuskorligi omillaridan iborat «5I» (rus tilidagi so‘zlar abreviaturasi) konsepsiyasini ilgari suradi (7).

O.Yu.Muller va F.D.Rasskazov ta’lim makonini tarkibining mavjudligi, moslashuvchan yoki qat’iy tuzilishi, darajasi, shuningdek, tashkil etilishi kabi qator xususiyatlar bilan tavsiflaydilar (8).

Yuqoridagilar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin: ilmiy va o‘quv klasterini aniqlashda eng muhim mezoni uning barcha tarkibiy qismlari uchun yagona umumiy maqsadning mavjudligi bo‘lib, u amalda birlashgan ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy-ma’rifiy loyihalarda ifodalanishi mumkin bo‘lib, bu davrda ishtirokchilarda ijobiy fazilatlar, xususan, o‘quvchilarning har birlari uchun va xuddi shuningdek, klasterga kiritilgan tashkilotlarning yangi hayotiy, ijtimoiy vakolatlari shakllanadi (8).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Педагогика и психология инклюзивного образования: учебное пособие /Д.З. Ахметова, З.Г. Нигматов, Т.А. Челнокова, Г.В. Юсупова и др.; под ред.Д.З. Ахметовой. – Казань: Изд-во «Познание» Института экономики, управления и права, 2013 – 204 с.

2.Баева И.А. Психологическая безопасность в образовании: Монография.- СПб.: Издательство «СОЮЗ», 2002. -271 с.

3.David Mitchell «What Really Works in Special and Inclusive Education» First published 2008 by Routledge 2 Park Square, Milton Park, Abingdon, Oxon OX14 4RN2008 David Mitchell

4.Айсмонтас Б.Б., Одинцова М.А. Инклюзивная образовательная среда вуза как ресурс для развития жизнестойкости и самоактивации студентов с инвалидностью.// Психологическая наука и образование. 2018. Т. 23. № 2. С. 29-41.

5.Буковцова, Н. И. Инклюзивное образование детей с ограниченными возможностями здоровья: проблемы и перспективы / М.: МГППУ, 2011.-286 с

6.Yildirim K., Yenipinar S. Psychological unsafety in schools: The development and validation of aScale. Journal of Education and Training Studies. 2017. 5(6).

7.Войнаренко М.П. Кластеры в институциональной экономике: монография. Экономическое возрождение России. / АНО “Институт проблем экономического возрождения”/Санкт-Петербург: АНО ИПЭВ, 2013. FB 1 14-9/234

8.Муллер О.Ю., Рассказов Ф.Д. Научно-образовательная кластерная модель как единая система непрерывного инклюзивного пространства. Современные проблемы науки и образования. 2016. № 5.